

ASKAROV Abdurashid Murodjonovich
O'zbekiston xalqoro islom akademiyasi
Arab tili va adabiyoti al-Azhar kafedrası
o'qituvchisi, filologiya fanlari bo'yicha
falsafa doktori (PhD)

«ŠARĤU-L-MIFTĀĤ» ASARIDAGI BALOG'AT ILMIGA OID NAZARIY QARASHLAR

THEORETICAL VIEWS ON BALAGA IN THE WORK OF «ŠARĤU-L-MIFTĀĤ»

ТЕОРЕТИЧЕСКИЕ ВЗГЛЯДЫ БАЛАГАТА В ПРОИЗВЕДЕНИИ «ŠARĤU-L-MIFTĀĤ»

Annotatsiya. Mazkur maqolada arab tilining balog'at fani, uning tarkibidagi ilmul bayon, ilmul maoniy va ilmul badi' haqida, ushbu san'atlarning yuzaga kelish tarixi, hamda, ushbu ilmlarni ajdodlardan qolgan og'zaki va yozma ma'naviy merosni o'rganishdagi ahamiyati bayon qilindi. Shuningdek, arab tili balog'atiga ulkan hissa qo'shgan olimlar Jurjoni, Zamakhshariy, Taftazoniy, Sakkakiy, Qazviniy haqida so'z yuriladi.

Kalit so'zlar: arab tili balog'at fani, ilmul maoni, ilmul bayon, ilmul badi', polisemiya, sinonimiya.

Аннотация. Эта статья исследует риторiku арабского языка и его содержания: илмул баян, илмул маани ва илмул бади, историю возникновения этих наук, а также их роль в изучение устного и письменного наследия предков и ученых. Статья также содержит работы великих ученых Джурджани, Замахшарий, Тафтазани, Саккаки, Казвини об арабской риторике.

Ключевые слова: риторика арабского языка, понимание его содержания: илмул маани, илмул баян, илмул, бади, история возникновения этих наук, полисемия, синонимия.

Annotation. This article explores the rhetoric of arabic language, comprehension of its contents: ilmul maani, ilmul bayan, ilmul badi, the history of the occurrence of these sciences, and its role on studying the oral and written heritage of ancestors, scholars. The article also contains the works of the great scholars

Jurjani, Zamakhshary, Taftazani, Sakkaki, Qazwini on arabic rhetoric.

Key words: the rhetoric of arabic language, comprehension of its contents: ilmul maani, ilmul bayan, ilmul badi, the history of the occurrence of these sciences, polysemy, synonymy.

KIRISH

Dunyoda Qur'on, hadis va adabiy asarlar balog'atini tadqiq etishda Sa'duddin Taftazoniyning balog'atga bag'ishlab yozilgan asarlari ilmiy-nazariy manba vazifasini o'taydi. Bugungi kunda olimlar tomonidan «Muṭawwal», «Muḥtasaru-l-ma'āniy», «Šarḥu-l-miftāḥ» asarlari tekstologiyasi, tarkibiy tuzilishi, mazkur asarlardagi balog'at qoidalari hamda terminlarining qo'llanilishi borasida amalga oshirilgan tadqiqotlar Taftazoniyning balog'at ilmining nazariy qoidalarini ishlab chiqishda o'z uslubiga ega ekanini ko'rsatadi. Asarlarda itnob, istiora, muḥassanat badi'iyya, tashbih, kinoya, qasr, iltifot masalalarida ilgari surilgan nazariy qarashlar sohada olib borilayotgan tadqiqotlar salmog'ini oshirishga xizmat qiladi.

ASOSIY QISM

Sa'duddin Taftazoniyning «Šarḥu-l-miftāḥ» asari Sakkakiyning (vaf. 626/1229) «Miftāḥu-l-ʿulum» asarining balog'atga oid uchinchi qismiga yozilgan sharhdir. Sa'duddin Taftazoniy «Havāšī-l-Kaššāf» asarida unga havola keltirib, «...biz buning tahqiqini «Šarḥu-l-miftāḥ»da keltiramiz» degan. Asar ushbu nom bilan mashhur bo'lgan. U keyinchalik «Šarḥu-l-qismi-s-salis min miftāḥi-l-ʿulum» deb ham nomlangan [5:275].

Sa'duddin Taftazoniy «Talḥīṣ»ga ikki marta sharh yozilgandan keyin «Miftāḥ»ni sharh qilishga sabab topa olmagan. So'ng uni «Kaššāf» va «Miftāḥ»ni sharh qilishga undaydigan omillarni topguncha oradan 30 yil o'tdi. Taftazoniy aytadi: «Ba'zi fuzalo va ulamolarning iltimosi bilan qalam yuganini «Kaššāf» asari hoshiyalariga ta'liq yozish, uning dur va sadaflarini ajratish tomon burish, soatlari va soniyalari o'rtasini ajratish, yetuk alloma Abu Ya'qub Siroj al-ma'oliy Yusuf ibn Muhammad Sakkakiyning «Miftāḥu-l-ʿulūm» asarining uchinchi qismini sharh qilishga va'da berdim... Sohir atoqli shoir va adiblar tili asarning nafis iboralari chiroyli ekani, ishoralari nozikligini aytgan. Arablar nozik iboralarida uni mezon va

¹ Transkripsiya uchun DIN (qisqartma.) – nem. Deutsches Institut für Normung e.v. (Nemis standartlashtirish instituti) tomonidan qabul qilingan transkripsiya belgilari olindi.

badiiy san'atlarni o'ta aniqlikda o'lcaydigan tarozi ekanini ko'rish mumkin. Ifodani tuzishda, bayon sohasidagi qoidalarini ko'tarishda, Qur'onga xos bo'lgan ikki ilm asoslariga kirishda ma'nolar va ularning munosib bo'lishi, bir necha taraflarning birikishi va mosligida o'z kuchini ayamagan» [3:85].

Sa'duddin Taftazoniyni ushbu sharh tarzida yozilgan asari Sakkokiy tomonidan balog'at borasidagi bildirilgan fikrlarga dastlabki munosabat emas. Taftazoniy bundan oldin Sakkokiy so'zlarining jumboqli joylarini «Muṭawwal» va «Muḥṭaṣar»da bayon qilishga e'tibor qaratgan. Asarni Ro'fat Ismoil G'onim 1403/1983-yilda Al-azhar universitetida doktorlik darajasini olish uchun «Šarḥu-l-miftāḥ»ni tahqiq qilgan. Asarga o'nlab hoshiyalar bitilgan hamda olimlar tomonidan mazkur asardan iqtiboslar keltirishgan.

«Šarḥu-l-qismi-s-salis min miftāhi-l-'ulum» va «Muṭawwal» asarlari o'rtasidagi quyidagi farqlar mavjud. Sa'duddin Taftazoniy «Miftāḥ-l-'ulum» asarida alohida sharh qilish uslubini qo'llagan. Shu bilan birga, «Muṭawwal»da tutgan yo'lidan ham foydalangan. Taftazoniy sharh uslubini qo'llaganda ikki asar o'rtasidagi farqni izohlab bergan. U «Muṭawwal»ni yozgan vaqtda yosh, qiziqqon bo'lgan. Unda tezligi, tanqid vamunosabat berishdagi shiddati namoyon bo'ladi. Unda fikrlar, e'tirozlarni kengaytirib, garchi uzun va ko'p bo'lsa-da, ular haqida bahslashishga sabr-toqati bor edi. Yana keng sharhlash va har tomonlama tadqiq qilishga istak bor edi. Ammo «Šarḥu-l-Miftāḥ» asarini yozganda vazmin qariya edi. Yillar uning tilini puxtalashtirgan, tajribasi ortgan, ko'p ilmlar borasida yozilgan ma'lumotlar bilan tanishib chiqqan edi. «Šarḥu-l-Miftāḥ»da matnni aralash sharh emas, balki so'z bilan sharh qilgan. Sakkokiy so'zining boshini boshlab, oxiriga yetkazmay qolgan o'rinlarni undagi noaniqliklarni sharh qilib, chigallikni yechib beradi [3:76].

Taftazoniyni ushbu yo'lga olib borgan holat oldingi ikki asarida zikr qilinganidek takror ko'payib ketishining oldini olish bo'lgan. So'z bilan sharh qilish unga matn muallifining so'zidan xohlaganini sharh qilishga imkon bergan. Agar «Šarḥu-l-Miftāḥ»da oldingi ikki asarda kengroq keltirgan muhim bahs-munozaralarni qaytarmoqchi bo'lsa, uni qisqa va muxtasar holda keltirgan, yoki masalaning bir tomonini zikr qilib, «Šarḥu-t-Talḥīṣ»ga havola bergan. Ikkinchi tomondan,

«Šarḥu-l-Miftāḥ»da «Muṭawwal»da kam e'tibor qaratish yoki ishora qilish bilan kifoyalangan masalalarini keng bayon qilib, izohlaganini ko'rish mumkin [4:143].

Ba'zida ushbu sharhda Sakkokiyning fikrlari ma'nosini «Miftāḥ» sharhlari bilan tanishib chiqqanlar tushunadigan tarzda yoki Sa'duddin Taftazoniy «Muṭawwal» asarida keltirgan ko'rinishda ifodalash bilan cheklangan. Mazkur uslub Taftazoniy o'z asarlarining muqaddimada eslatganidek Sakkokiyning so'zlarida uchragan noaniqlik bartaraf etish yo'lidir.

Sa'duddin Taftazoniy «Šarḥu-l-Miftāḥ»da avvalgi «Muṭawwal» hamda «Muḥṭaṣaru-l-ma'āniy» asarlarida zikr qilgan ayrim fikrlaridan voz kechgan. Bu yerda e'tibor berish lozim bo'lgan jihat shuki, Sa'duddin Taftazoniy ba'zi o'rinlardagi istilohiy masalalarda matn egasi Sakkokiyga ergashgan, shuningdek, «Šarḥu-l-Miftāḥ»da «Muṭawwal»da aytganidan boshqa fikrga borgan ma'lum qilgan. Bu o'z fikriga qarshi borish emas, balki qo'shimcha fikrlar keltirish hisoblanadi. «Šarḥu-l-Miftāḥ» asarida «Muṭawwal»da yo'q balog'at masalalar ham mavjud. Shu bilan birgalikda «Muṭawwal» asarida keltirgan balog'at masalalarini «Šarḥu-l-Miftāḥ»da keltirmagan [2:187].

Mazkur asarning o'ziga xosliklaridan biri shuki, Taftazoniy ushbu asarda «Muṭawwal» asarini yozgan vaqtda mavjud bo'lmagan asarlarda ham keng yoritilgan masalalarga havolalar bergan.

Ushbu sharhda xoslangan jihatlardan biri Taftazoniyni Sakkokiy tiliga kuchli e'tibor qaratganidir. Sa'duddin Taftazoniy Sakkokiyni faqat balog'at olimlari ichida ulug'yo'l boshchi deb emas, balki balog'at uning qalamidan taraladigan, iborasidan sehrli so'z porlaydigan adib deb hisoblagan. Taftazoniy Sakkokiyning ba'zi iboralarni tahlil qilgan. Buning sababi, ushbu iboralardan ilm va ishoralarni chiqarish, so'zlarining sehri va chiroyini bayon qilishdir.

«Šarḥu-l-Miftāḥ»dagi Sa'duddin Taftazoniyni tili adib ruhiga yaqinroq bo'lib, «Muṭawwal»da esa o'tkir ilmiyligi ko'rinadi. Buning sababi muallif tanlagan uslub hisoblanadi. U «Muṭawwal»da ko'plab balog'at qoidalarini, istilohlari va chegaralari haqida bahs yuritgan bo'lib, «Šarḥu-l-Miftāḥ»da esa ularni takrorlamasdan, faqat ularga ishora qilish va qisqartirish yo'li bilan ifodalagan. U balog'at ilmining boshqa tomonlariga

e'tibor qaratishga fursat topgan, balog'atli gap ma'nolari ostidagi nozik jihatlar-nuktalar va ma'nolarni chiqarib olgan. So'ng Sakkokiy ba'zi boblarda keltirgan va shunday qoldirgan ketgan ma'lumotlarni tahlil qilishga kirishgan. Bunga Sakkokiyning vaqt o'tgan sayin ushbu asari o'quvchisini qiziqtirishi va Sakkokiyning balog'atga oid ma'lumotlarni o'z bobida keltirib, u ma'lumotlardagi izoh talab qiladigan iqtibos va sharhlarni ziyrak o'quvchiga qoldirib ketganiga Sa'duddin Taftazoniyning ishonchi yordam bergan. «*Šarḥu-l-Miftāḥ*»da matnni so'zma-so'z sharh qilish Taftazoniyga aralash sharhida mahrum bo'lgan erkinlikni bergan va u qalamini shunga yo'naltirgan.

Taftazoniy ushbu uslubni o'zi aniq aytgan: «Siz bizning misollarni keltirishimiz va undagi nozik nuqtalar-jihatlarini bayon qilganimizdan ko'rib turganingizdek (uslubimiz – shu), hatto ko'p ilmlarda talaba biror foyda olmagan qoidalarga kirishni ham qisqartirib yubordik» [3:45].

Sa'duddin Taftazoniyning ushbu sharhni yozishiga, Sakkokiy nazarda tutgan maqsadlar va balog'atga oid nozik jihatlarini chiqarib olishga e'tibor qilishga yana bir qo'shimcha sabab uning «*Kaššāf*»dan ta'sirlangani hisoblanadi. Chunki «*Šarḥu-l-Miftāḥ*»ni «*Hawāšiyu-l-Kaššāf*»ni yozayotgan vaqtda ta'lif qilgan. Ikki asarning yozilishi bir vaqtga to'g'ri kelishi birining boshqasiga aralashib ketadigan ba'zi jihatlarini keltirib chiqargan.

Sa'duddin Taftazoniyning tafsirga oid asarlaridan deb hisoblanadigan «*Hawāšiyu-l-Kaššāf*» nomli bor. Lekin u ko'plab ilmlarni o'z ichiga olgani uchun balog'atga aloqador masalalarni ham o'z ichiga oladi. Ushbu asar Zamaxshariyning mashhur «*Kaššāf*»tafsiriga sharh vaizohlar jamlanmasidir.

Sa'duddin Taftazoniy ushbu asarga «*Hawāšiyu-l-Kaššāf*»nomini o'zi bergan. Bibliografik asarlarda u shunga yaqin «*Šarḥu-l-Kaššāf*» nomi bilan keltirilgan. Ushbu nomlarning barchasiga muallifdan naql qilingan asarlarda havola berilgan.

Taftazoniy ushbu asarni oxiriga yetkazmagan. Unda Fotiha surasidan boshlab Yunus surasigacha, so'ng Sod surasidan Muhammad surasigacha hoshiya bitgan. Qo'lyozmani ko'chirgan xattot Yunus surasini tugatgach: «*Kaššāf*» asari hoshiyalarining birinchi juzi tugadi», deb yozgan. Hoshiyada shunday yozilgan: «Hud surasi boshidan

Soffat surasi oxirigacha hoshiya yozilmagan. 27 sura qoldirib ketilgan». Bu so'zni boshqa ma'lumotlar ham tasdiqlaydi. Bibliografik asarlarda Sa'duddin Taftazoniy ushbu asarini tugatgani haqidagi gaplar o'rinsiz. Sa'duddin Taftazoniy ikki juz dan iborat ushbu asarni Samarqandda 789/1387-yilning Rabi'ul oxir oyida tugatgan.

Sa'duddin Taftazoniyning ushbu asarni oxiriga yetmagani ta'kidlanadi. Hasan ibn Ahmad Jalol (1084/1673-sanada vafot etgan) uni oxiriga yetkazgan va «*Mināḥu-l-altāf bi-takmil ḥāšiya-s-Sa'duddin ala-l-Kaššāf*» deb nomlagan [1:276].

Ushbu asarning holati «*Šarḥu-l-Miftāḥ*»asari kabi bo'lib, qo'lyozmalari oliygohlardagi boshqa risolalar kabi o'rganishva tadqiqi etishni talab etadi. Uning

1-juzini 1978-yil Al-azhar universitetida doktorlik darajasini olish uchun Abdulfattoh Iso Barbariy tahqiq qildi. 2-juzini esa 1979-yil ushbu universitetda doktorlik darajasini olish uchun Favziy Abdulqohir Abdu Robbihi nashrga tayyorladi.

«*Kašfu-z-zunun*» muallifining ushbu hoshiya Toyyibiyning «*al-Kaššāf*»ga yozgan hoshiyasining qisqartmasi deb zikr qilgan so'zi to'g'ri emas. Chunki ikkisi qiyosan o'rganilgan. Ushbu so'zga doktor Muhammad Abu Muso avval munosabat bergan.

Sa'duddin Taftazoniydan keyin kelgan olimlar uning ushbu asarini boshqa asarlari singari samimiy qabul qilishgan. Unga bir necha hoshiyalar yozib, undan ko'p iqtiboslar keltirishgan.

«*Hawāšiyu-l-Kaššāf*» asari «*Kaššāf*»ga yozilgan eng muhim asarlardan sanaladi. Hoji Xalifa aytadi: «Muhaqqiq, bilimdon ya'ni Sa'duddinining sharhi esa tahqiq, tadqiq, muvofiqlashtirish va bezatish nozikliklarini qamrab olgani uchun tengi yo'qdir. Lekin fursat o'tib, u bilan umrining oxirida shug'ullangan. Natijada o'lim chopari ushbu ishni tugatishidan oldin kelgan. Men uning oy va yillar davomida minilmagan baytal-yosh biya va teshilmagan gavhar ekaniga aniq ishonch hosil qildim» [1:276].

Sa'duddin Taftazoniy «*Hawāšiyu-l-Kaššāf*»asarida Zamaxshariy «*Kaššāf*»da e'tibor qaratgan ilmlarga e'tiborini qaratgan. Unga «*Kaššāf*» o'z ichiga olgan lug'at, nahv va fiqh masalalarini kiritgan. Sa'duddin Taftazoniy ushbu asarda ko'proq Imom Shofe'iy va Abu Hanifa mazhabi o'rtasidagi ixtilofli masalalarni tarjih

qilishda tarkibning xos masalalariga suyanishga harakat qilgan. Tarkibning xos masalalarini bilish bilan tanilgan Zamaxshariyga munosabat bildirgan. Qiroatlar borasida ham e'tiroz bildirib, Zamaxshariyini ba'zi qiroatlarni zaifga chiqargani uchun tanqid qilgan. Yana boshqa tafsir ilmlariga oid masalalarda ham tanqid qilgan.

Balog'at ilmiga oid masalalar ushbu hoshiyalar «Hawāshiyu-l-Kaššāfning bir jihatini qamrab olgan. Chunki, matn va hoshiya muallifi ushbu ilmning eng ko'zga ko'ringan bilimdonlaridan. Ushbu masalalarni Sa'duddin Taftazoniy asarlaridagi ma'lumotlar bilan taqqoslagan odam uncha katta farqni ko'rmaydi. Yuqorida Taftazoniyning asar ta'lif qilishdagi boshqa asarlardagi ma'lumotlardan to'liq foydalanish, uni munozara qilishdagi ijtihodi, ularda yozilganlarni o'rganib chiqib, so'ng bularning barchasini sharhlariga kiritgani haqidagi uslubi haqida so'z yuritildi.

«Muṭawwal»da Sa'duddin Taftazoniy «Kaššāf»dagi balog'atga oid qoidalar va chigal masalalarning aksariyatini iqtibos sifatida keltirib, uni muhokama qilib, so'ngra ularning tahlilini keltirgani ma'lum. Ushbu «Hawāshiyu-l-Kaššāf» asarida shunday masalalar kelsa, uni qisqartib qayta keltirishga yoki o'quvchi uchun «Šarḥu-t-Talḥīs»ga havola berish bilan cheklangan. Shundan so'ng «Kaššāf»dagi balog'atga oid ma'lumotlarni tahlil yoki ilova qilish kerak bo'lgan. Bu esa Sa'duddin Taftazoniy o'rganadigan va tahqiq qiladigan o'rin emasdi. Zamaxshariy bu masalalarda munozara qilinmaydigan, faqat u mu'taziliylikka hukm qilingan edi. Sa'duddin Taftazoniy esa o'quvchilarni to'g'ri yo'lga boshlash uchun unga munosabat bildirgan. Bu esa Taftazoniyning balog'atga oid oldingi asarlarida mavjud bo'lmagan yangi jihatdir [4:286].

Zamaxshariy «birinchi alloma» bo'lsa, Taftazoniy «ikkinchi alloma» deb nom olgan. Bu allomaning ilmi kengligi, mashhurligi va «Kaššāf»dagi aksar ilm nahv, lug'at, balog'at va boshqa ilmlarni «Hawāshiyu-l-Kaššāf» asarida muhokama qilgani uchun berilgan. Shu tufayli «Hawāshiyu-l-Kaššāf» asarida ilm sohaları kengayib, manbalari ko'payib ketgan [4:276].

Sa'duddin Taftazoniyning «Šarḥu-l-qismi-salis min miftāḥi-l-ulum» asari 1991-yil Misrning mashhur al-Azhar universiteti arab tili fakulteti balog'at kafedrası doktori Ro'fat Ismoil G'onim tomonidan o'rganib tahqiq qilingan.

Yuqoridagilardan Sa'duddin Taftazoniy qoldirgan balog'atga oid meros ko'lami namoyon bo'ladi. Ular allomaning ushbu sohaga katta e'tibor qaratgani, o'zidan keyingi olimlar e'tiboridagi asarlarining darajasini ko'rsatadi.

Taftazoniyning balog'atga oid asarlari boshqa olimlarning balog'at asoslariga oid asariga sharh bo'lsada, qoldirgan merosi uning shaxsiyati va fikri boshqalardan ajralib turishini bildiradi.

Xulosa o'rnida balog'at ilmining tarmoqlarining tadqiqi natijasida hosil bo'lgan xulosalar quyidagichadir:

Sa'duddin Taftazoniyning balog'atga oid uchta asari mavjud bo'lib, ularning barchasi ushbu sohada mashhur bo'lgan oldingi asarlarning sharhi sifatida bitilgan asarlar hisoblanadi. Sa'duddin Taftazoniy o'zidan oldingi Sakkokiy matnlarini sharhlashga kirishgan olimlarning asarlarni o'rganib chiqib, o'z sharhi bilan ulardagi kamchiliklarni bartaraf etishni xohlagan.

Sa'duddin Taftazoniy «Muḥtaşaru-l-ma'āniy» asarida «Muṭawwal»da keltirgan fikrlarini ko'p qismini keltirmagan [5:341].

Sa'duddin Taftazoniy «Muṭawwal» asarini yozishda Qazviyniy «Talḥīşu-l-miftāḥ» asarida olimlarning qarashlariga munosabat bildirgan va ularni ixchamlashtirgan o'rinlarning barchasini o'rganib chiqishni, boshqa balog'at olimlarining so'zlaridan dalillar keltirish orqali uning qarashlarining to'g'ri yoki xato ekani aniqlashni maqsad qilgan edi. Shu tariqa Taftazoniyning «Muṭavval» asari balog'at ulamolari qarashlariga, ayniqsa ularning «Miftāḥu-l-ulum»da keltirilgan so'zlariga sharh bo'lgan. Lekin, buning barchasi Qazviyniyning bildirgan fikrlarini sharhlash jarayonida amalga oshirilgan. Taftazoniy Qazviyniyning fikrlarini sharhlagandan so'ng boshqa olimlarning qarashlariga munosabat bildirishga o'tib ketgan.

Xulosa

Taftazoniy balog'at ilmiga oid uch kitobi «Muṭavval», «Muḥtaşaru-l-ma'āniy» va «Šarḥu-l-miftāḥ» nomi bilan mashhur bo'lgan asarlarida balog'at masalarini sharh qilishda aniqlikka juda katta e'tibor qaratgan va o'zi sharh qilayotgan asarlarning mualliflari tomonidan yozilgan qo'lyozma nusxalaridan foydalangan. Qaysi soha bo'lishidan qat'iy nazar muammoli ilmiy

masalalarni sharhlashga kirishgan va ularga aloqador barcha ilmlarni puxta o'rgangan va egallagan.

Sa'duddin Taftazoniy balog'atga oid uchinchi asari «Šarḥu-l-miftāḥ»ning ba'zi o'rinlarida avval yozgan ikki asari «Muṭavval» va «Muḥtaşaru-l-ma'āniy»da qo'llagan uslubidan o'zgacha yondashgan. Unda ilmiy tahlillarni va misollarni ko'paytirgan. Unda balog'atga oid juda nozik masalalarni ham keltirganligi ma'lum bo'ldi. Taftazoniyni balog'atga oid sharh asarlariga o'zi tomonidan «Muṭavval», «Muḥtaşaru-l-ma'āniy» deb nom qo'yilmagani dalillar asosida isbotlandi. Sa'duddin Taftazoniy o'zining ikkinchi sharhi «Muḥtaşaru-l-ma'āniy»da avval yozgan sharh asari «Muṭavval»ni muxtasar qilish bilan birga unga balog'atga oid qo'shimcha ilmiy yanililiklar kiritdi va ularni rivojlantirdi.

Sa'duddin Taftazoniy «Muṭavval» asaridan farqli ravishda «Muḥtaşaru-l-ma'āniy» asarida keltirgan qo'shimchalariga uning fors adabiyoti va balog'ati bilan chuqur tanishib chiqqani ham katta ta'sir qilgan. Sa'duddin Taftazoniy «Muḥtaşaru-l-ma'āniy» asarida arablar balog'ati bilan forslar balog'atini solishtirishgan.

Shu bilan birga Taftazoniy o'zining tafsir asari hisoblangan «Hawāšiyu-l-Kaššāf» asarida oyatlarni sharhlash jarayonida ko'plab balog'at masalarini yoritib bergan.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. سعد الدين التفتازاني. الشرح المطول لتلخيص المفتاح. – بيروت: دار الكتب العلمية، 2013. – 792 ص.
2. سعد الدين التفتازاني. مختصر المعاني شرح كتاب تلخيص المفتاح. – اسطنبول: دار الشفاء، 2017. – 704 ص.
3. سعد الدين التفتازاني. شرح مفتاح العلوم. – دمشق: دار تقوى الشام، 2020. – 793 ص.
4. ضياء الدين القالشي. التفتازاني وأراؤه البلاغية. دمشق. – بيروت: دار النوادر، 2010. – 562 ص.
5. الزمخشري. الكشاف. – دمشق: دار تقوى الشام، 2020. – 793 ص. ج. 1.
6. ابن بحر الجاحظ. كتاب البيان والتبيين. – مكتبة النور، 2006. – 444 ص.
7. الجرجاني. دلائل الإعجاز في المعاني. – القاهرة: المكتبة التوفيقية، 2005. – 716 ص.
8. أبو يعقوب السكاكي. مفتاح العلوم \ تحقيق د. عبد الحميد الهنداوي؛ علي جارم و مصطفى أمين. البلاغة الواضحة. البيام-المعاني-البديع. – القاهرة، 1999. – 539 ص.
9. جلال الدين القزويني. الإيضاح في علوم البلاغة المعاني والبيان والبديع. – لبنان: دار الكتب العلمية، 2003. – 415 ص.

10. بكري شيخ أمين. البلاغة العربية في ثوبها الجديد. – بيروت، 1984. – 198 ص.
11. عبد العزيز عتيق. علم البديع. – بيروت: دار النهضة العربية، 2015. – 248 ص.
12. بدوي طبانة. معجم البلاغة العربية في مجلدين. الطبعة الثالثة. – جدة: دار المنارة، 1988. – 781 ص.
13. أبو يعقوب السكاكي. مفتاح العلوم \ تحقيق د. عبد الحميد الهنداوي؛ علي جارم و مصطفى أمين. البلاغة الواضحة. البيام-المعاني-البديع. – القاهرة، 1999. – 539 ص.
14. أحمد الهاشمي. جواهر البلاغة في المعاني والبيان والبديع. – بيروت: دار الإحياء التراث العربي، 2008. – 300 ص.
15. الفناري. حاشية على المطول. – بيروت: دار كتب، 2007. – 464 ص.
16. بكري شيخ أمين. البلاغة العربية في ثوبها الجديد. – بيروت، 1984. – 198 ص.
17. جلال الدين السيوطي. بغية الوعاة في طبقات اللغويين والنحاة. – ج. 2. – مصر، 1967. – 600 ص.
18. شوقي ضيف. البلاغة تطور وتاريخ. – بيروت، 2008. – 388 ص.
19. عبد العزيز عتيق. علم البيان. – بيروت: دار النهضة العربية، 1986. – 226 ص.
20. عبد العزيز عتيق. علم البديع. – بيروت: دار النهضة العربية، 2015. – 248 ص.
21. عبد العزيز عتيق. علم المعاني. – بيروت: دار النهضة العربية، 1985. – 226 ص.
22. عبد القاهر الجرجاني. أسرار البلاغة. – جدة: دار المدني، 1991. – 548 ص.
23. فضل حسن عباس. البلاغة – فنونها وأفانها: علم المعاني. – عمان: دار الفرقان، 1997. الطبعة الرابعة. – 616 ص.
24. صالح ساسه. المنجد في الإعراب والقواعد والبلاغة والعروض. – دار الرائد الطباعة والنشر، 2007. – 400 ص.
25. ابن وهب. البرهان في وجوه البيان. – مصر: مكتبة الشباب، 2017. – 419 ص.
26. أحمد مصطفى المراغي. تاريخ علوم البلاغة والتعريف برجالها. – مصر: مكتبة الشباب، 1950. – 219 ص.
27. مصطفى ابن عبد الله حاجي خليفة. كشف الظنون عن أسامي الكتب والفنون. – دمشق: مكتبة الشباب، 1994. – 118 ص.